



MADANIY DAM OLIISHNI TASHKIL ETISHNING ASOSIY OMILLARI

Saparbaeva Gulshira Abatbaevna

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Nukus filiali "Madaniyat faoliyati" kafedrası mudiri, dotsent.
<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10035939>

ARTICLE INFO

Received: 16th Oktober 2023

Accepted: 23th Oktober 2023

Online: 24th Oktober 2023

KEY WORDS

Bo'sh vaqt, madaniyat, xalq ijodiyoti, to'garak, bayram, tomosha.

ABSTRACT

Maqolada madaniy dam olishti tashkil etish faoliyati – bo'sh vaqtni tashkil etish, dam olish xizmatlarining nazariy asosi va madaniy dam olishning mazmun va shakllari, madaniy dam olishni tashkil etish faoliyatida bayramlar haqida so'z etiladi. Insonning hayotiy faolligini oshirishda bo'sh vaqtning asosiy funkciyalari haqida tushunchalar ilmiy tarzda asoslab berilgan.

Madaniy dam olishti tashkil etish faoliyati – bo'sh vaqtni tashkil etish, dam olish xizmatlarining nazariy asosiga suyanagan holda madaniy dam olishning mazmun va shakllari, madaniy dam olishni tashkil etish faoliyatida madaniyat muassasalari bilan aloqasi, madaniyat markazlari, istirohat dam olish bog'larida teatrlashtirilgan va ommaviy tadbirlarning turli shakllari faoliyatni olib borish bilan bo'sh vaqtni tashkil etish tajribasining innovacion uslublarini qollanish, o'tkaziladigan tadbirlarning mazmuni milliy madaniyat namumasida tadbiriq etilishi tabab qilinadi.

O'zbeksdan Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021 - yil 20 – yanvar 668-sonli "Madaniy faoliyat va madaniy tashkilotlari haqida" gi qabul qilingan qonunining 29-statiyasida Madaniyat markazlari faoliyatning asosiy vazifalari belgilan berilgan. Bu vazifalar quyidagi ishlarni amalga oshirishdan iborat.

Davlat muassasasi shaklida tashkil etilgan, aholining madaniy ehtiyojlarini o'rganish, shuningdek madaniy - ma'rifiy va ko'ngilochar xizmatlar ko'rsatish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi, badiiy ijod, amaliy san'at va havaskorlik bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxs madaniyat markazidir. Madaniyat markazlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- aholiga ko'rsatiladigan madaniy xizmatlar sifatini yaxshilash, aholining bo'sh vaqti mazmunli o'tishini ta'minlash va madaniy ehtiyojlarini qanoatlantirish, ijodiy jamoalarning milliy qadriyatlarni, urf - odatlar va an'analarni o'zida mujassam etgan namunaviy dasturlarni shakllantirish;
- xalq ijodiyotini va badiiy havaskorlikni saqlash hamda rivojlantirish, badiiy va amaliy ijodiy jamoalarni, havaskorlik guruhlarini tashkil etish, ularning faoliyat ko'rsatishi uchun zarur shart - sharoitlar yaratish, shuningdek ijodiy jarayonlarni tizimli asosda boyitib borish;
- bolalarni to'garaklarga jalb etish, ularni chet tillarga o'qitish, "Nutq madaniyati" kurslarini tashkil etish, xalq ijodiyotining barcha janrlari va yo'nalishlarini, havaskorlik



san'atini va nomoddiy madaniy merosni keng targ'ib qilish, shuningdek ularni asl holida kelajak avlodga yetkazish;

- adabiyot va san'at arboblari, professional ijodiy guruhlar bilan birga ma'naviy - ma'rifiy va madaniy - ommaviy tadbirlarni tashkil etish hamda ular ishtirokida aholi, shu jumladan yo'shlar bilan ijodiy uchrashuvlar va suhbatlar o'tkazish;
- xalq ijodiyoti va tomosha san'ati tanlovlarini, tuman (shahar) festivallarini o'tkazish, iste'dodli yo'shlarni aniqlash hamda ijodkor yo'shlarni qo'llab -quvvatlash;
- ommaviy bayramlar, tomoshalar hamda xalq sayillarini tashkil etish, yuridik va jismoniy shaxslar bilan tuzilgan shartnomalarga ko'ra ijtimoiy - madaniy bo'sh vaqtni tashkil etish sohasida pulli xizmatlar ko'rsatishdan iborat [1:4].

Bo'sh vaqtga kam uchraydigan insoniy hayotiy funkciyalarini qayta tiklashda ham fiziologik ehtiyojni amalga oshirish ushın zárúr vaqtni olib tashlagandan so'ngi ish emas vaqtning bir bo'lagi dep ta'rif beriladi. Shuningdek, bo'sh vaqt sifatida bo'sh vaqtni amalga oshiruvchi odamlarning, madaniy dam olishining tashkil etilishi madaniyat muassasalari mutaxassislari faoliyatning professiyonalligiga tayanib ish olib borishi tadbir etiladi.

Madaniy dam olishni tashkil etish faoliyatining ikki xususiyati farqli shaklda ta'riflanadi:

- bu ishga faqat kasb sifatida emas, ya'ni ichki ehtiyojli qatnashi va o'nga kirishuvlari bilan belgilanadi;
- faoliyat natijalari emas, o'nga qatnashish va ko'ngil ko'tarish orqali yo'z beradigan ishning almashinuvini amalga oshiruv orqali tasvirlanadi.[2:6]

Madaniy dam olishni tashkil etish shaxsning predmetli faoliyatida motivatsion tanlovi uchun sharoitlar yaratishning maqsadga yo'naltirilgan jarayoni va insonning ehtiyojlari bilan belgilanuvchi, dam olish sohasida ma'naviy va madaniy qadryotlarni o'zlashtirishga, saqlashga, ishlab shiqarishga va tarqatishga yo'rdam etuvchi perceptiv - kommunikatsion jarayon (qabul qilish va qatnashuvda bo'lish) sifatida faoliyat yo'rtiladi. Madaniy dam olishni tashkil qilish faoliyatining specifik shakli faollik bo'lib o'ning asosida auditoriyani madaniy dam olishning kreativ uslublaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Yangi O'zbekiston rivoji bilan insonni qadrlash va o'ning ijtimoiy hayotida yangicha iqtisodiy munosabatlar, yangicha madaniy go'zal dunyoqarashlari ko'z oldimizda gavdalanadi, shuningdek, bo'sh vaqt ko'lamining ko'payishi va dam olishning jamiyat qadryoti sifatida o'shish tendenciyasi ko'zatilmoqda, sababi shaxsning o'z imkoniyotlarini ochish va turli zarurliklari asosidagi ehtiyojliklari uchun keng imkoniyotlarga ega sharoitlarning mavjudliginihg guvohi bo'lamiz.

Madaniy dam olishni tashkil etish faoliyati insoning ijodiy, faol dam olishiga, munosabatlar va ko'ngilochar madaniy tadbirlarni tashkil etish orqali madaniyatga tortish va tarbiyaviy jarayonlarga yo'naltiriladi. Ijtimoy - madaniy sharoitlarda paydo bo'ladigan madaniy va ijtimoy ehtiyojliklarni dam olish vaqtida amalga oshiruv mumkinligi sababli dam olish bilan madaniy oz - ora bog'liklik yo'z beradi. Dam olish shakli va mazmuni konkret jamiyatning madaniyati doyrasida shakllanadi va dam olishning madaniyatni paydo etuvchi potencialining amalga qo'llanishi insonlarning hayotiy faoliyatning o'sishga yo'rdam beradi.

Dam olishning to'g'ri tashkil etilishi shaxsning jamiyatda faolligini oshirishda qo'yidagi natijalarga erishiladi:

- jamiyatda pedagogik faoliyatni tashkil etishning ma'naviy - madaniy etukligini oshiradi;



- ijtimoiy - madaniy faoliyatning iqtisodiy statusi, bo'sh vaqt sohasida tadbirkorlikni rivojlantirish zarurligi;
- hayotiy tajribalarni solishtirish orqali munosobatlarni o'rnatish, shaxsiy rivojlanish, ta'limga yo'nalishi, ijodiy kreativ g'oyalarga ega bo'lishi, kitob o'qish madaniyanini rivojlantirishi, namuna bo'lishga erishishi va aholining real ehtiyojliklarining ko'p turli spektriga qayta yo'nalishini tashkil qiladi.

Aholi orasida madaniy dam olishni tashkil etishning asosiy funktsiyasi bu ommaviy bayramlar va tomoshalar hisoblanadi. Inson hayotida bayramlar katta o'rin egallaydi. Chunki insonning umri davomida, o'ning hayotda barcha erishgan yo'tiqlari, qilgan mehnatlari quvonichlarga ulashadi. Bu esa bayramona kayfiyatlarni paydo etadi. Bayramlar jamiyatning ma'naviy go'zalligini, aholining rivojlanish bosqichlari, turmush sharoitini ko'rsatuvchi asosiy vosita bo'lib hisoblanadi. Bayramlar ham jamiyatdagi o'zgarishlarga qarab, ma'lum darajada o'zgarib boradi. Zamon rivoji bilan yangi bayramlar paydo bo'ladi. Lekin bu bilan bayram shodiyonasi, insonlar xursandchiligi o'zgarmaydi. Insonlar bayram kunlari o'z hayotidagi tashvishlarini unitib, yangi hayotga intilishlarini o'zlari kiygan kiyimlarida, bir-birlariga bo'lgan munosabatlarida namoyon etadi. Bu esa madaniy dam olishning bir bo'laki sifatida konkret faollik ko'satayotgan insonlarning hayotidan mamnunligini bildiradi. Shuningdek, bayram hayotning eng hafis va nafosatli xislatlarini namoyish etuvshi vositasi, jamiyat rivojining yo'tiqlarining natijalaridan g'ururlanish hissiyotlarini yo'g'otuvchi - kechasi, bugunni, ertasi haqida dalolat beruvchi jonli manba hisoblanadi.

Sharqning buyuk olimi Mahmud Qoshqariy "Bayram - xalqning shodlik va xursandchilik kunidir" degan edi. Biron - bir muhim ijtimoiy voqea, sanani ko'pchilik bo'lib, ko'tarihki ruhda, xursandchilik bilan bayram deb tushiniladi. [3:11].

U.Qoraboyev xalq bayramlari mohiyatini belgilovchi bayramlarning xususiyatlaridan kelib chiqib, bayramning uchta asosiy xususiyatini belgilaydi:

1. Bayram holati (bayram kayfiyatining) paydo bo'lishi, bayramga bo'lgan ehtiyojni tug'ilishi;
2. Bayramona holat, kayfiyatining paydo bo'lishi - bu hali bayram degani emas. Shu kayfiyatni, shu holatni, intilishni ro'yobga chiqarish ushun bayramni tashkil etish kerak. Ommaning bayram istirokchisiga aylanishidir.
3. Bayram bu - teartlashtirilgan namoyishlar, tomoshalar, konsertlar, ko'rik - tanlovlar bellashlar, ya'ni rang - barang ommaviy tadbirlar birligidir [4:49].

Madaniyat mussasalarida bo'sh vaqtni tashkil etish uslublarida madaniy tadbirlarning mazmuni - inson qadrini ulug'lash, baxt-saodati, teng huquqliligi haqidagi g'oya va qarashlar ulug' ajdodlarimiz tafakkurida asrlar osha barq urib kelgan milliy qadryotlarimizga suyangon holda amalga oshiriladi. Bayramlarning xilma-xilligi va ularni tashkil etish madaniy dam olish bilan bog'lik faoliyatning omili hisoblanadi.

Bayramshunos olim, professor U.X.Qoraboyev bu xususida "Badiiy ommaviy tadbirlar" kitobida shunday yozadi: "Ssenariy yozish bilan kim shug'ullanmasin, u quyidagi talablarga javob bermog'i lozim: a) Ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotni, mahalliy aholi mehnati va turmushini chuqur tushuna oladigan hamda uni to'g'ri tahlil qila oladigan shaxs bo'lmog'i; b) Adabiyot va dramaturgiya sohasida bilimga ega bo'lgan, ulardan samarali foydalana oladigan



kishi bo'lishi; c) Hayotiy materiallarni, hujjatli dalillarni yig'a oladigan, ularni adabiy-badiiy shaklda bayon qila oladigan ijodkor bo'lmog'i lozim" [5:18].

Dam olish kechalarining qatoriga kiradigan umumiy xalq bayramlari va omma qatnashadigan teatrlashgan tomoshalar ssenariylarini tayorlashda ushbu tadbirning yopiq joyda yo'ki ochiq havoda o'tkazilishi hisobga olinishi zarur. Chunki bunda san'at publicistikaviy obrazlalar, axborotlarning mazmunli umumiyashtirilishi omma tamoshbiniga mo'ljalalanib, o'larga qo'layligi bilan savol-jabov yo'ki uchrashuv kechalariga tayorlangan ssenariylardan bir qancha ajralib turadi. Aynan bo'lgan voqiya hodisalarni, aniq bir taniqli odamlarning jamiyat hayotidagi san'at uslubida tomoshaga aylantiriladi [6:18].

Ushbu bayram va tomoshalarda qatnashgan insonlar madaniy dam olishini amalga oshiradi va tarbiyaviy jarayonlar o'z natijasini beradi.

References:

1. <https://lex.uz>. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi
2. Юлдашева.М.Б. Методы формирования культуры отдыха населения. Ташкент.: 2023.- 296 стр
3. J. Mamatqosimov. Ommaviy bayramlar rejissurasida sahna madaniyati. Toshkent.: Fan va texnologiya, 2009. – 206 b.
4. Qoraboyev U.X. O'zbekiston bayramlari. T.: 1991.189 b
5. Saparbayeva G. Ommaviy bayramlarni tashkil etishda ssenariynavislikning o'irni. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - Volume 2 Issue 2 / September 2021.-18 b.
6. А.Жузимбетов., Э.Эбдикамалов. Клуб драматургиясы хэм миллий дэстүрлер. Нөкис. Билим 1996. 60 б.